



ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA SAIDA ZUNNUNOVANING
LIRIK KECHINMALARI TAHLILI

Aliqulova Ra'no Akmal qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yorqin vakili Saida Zunnunovaning lirik merosi tahlil qilinadi. Shoiraning she'riyatida ayol ruhiyati, muhabbat va sadoqat, ayriliq iztiroblari, onalik tuyg'ulari hamda hayotning murakkab kechinmalari o'ziga xos poetik ohangda aks etishi yoritiladi. Zunnunovaning lirikasidagi nozik sezgirlik, samimiy obrazlar, ruhiy teranlik va falsafiy mushohadalar misollar orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ijodining Zulfiya she'riyati bilan mushtarak jihatlari, urush mavzusiga bo'lgan badiiy yondashuvi va ayollik timsolini yaratish mahorati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida Zunnunova lirikasining o'zbek ayol she'riyati rivojida muhim o'rin tutgani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Saida Zunnunova, lirik meros, ayol ruhiyati, sevgi va sadoqat, poetik tasvir, psixologik lirika, Zulfiya, urush mavzusi, ayollik timsol

Annotation: This article analyzes the lyrical heritage of Saida Zunnunova, one of the prominent representatives of 20th century Uzbek literature. The study highlights how the poet reflects themes such as women's inner world, love and loyalty, the pain of separation, maternal feelings, and the complexities of life through her unique poetic expression. The article examines the subtle sensitivity, sincere imagery, psychological depth, and philosophical reflections in Zunnunova's poetry using various examples. It also explores her creative parallels with the works of poet Zulfiya, her artistic approach to the theme of war, and her mastery in portraying feminine identity. The study concludes that Zunnunova's lyrical works have played a significant role in the development of Uzbek women's poetry.

Keywords: Saida Zunnunova, lyrical heritage, women's psychology, love and loyalty, poetic imagery, psychological lyricism, Zulfiya, war theme, feminine identity

Аннотация: В данной статье анализируется лирическое наследие Саиды Зуннуновой — одной из ярких представительниц узбекской литературы XX века. Исследование раскрывает, как поэтесса выражает темы внутреннего мира женщины, любви и верности, боли разлуки, материнских чувств и жизненных переживаний посредством уникального поэтического стиля. В статье рассматриваются тонкая чувствительность, искренние образы, психологическая глубина и философские размышления, присущие лирике Зуннуновой. Также анализируются её творческие параллели с поэзией Зульфийи, художественный подход к теме войны и мастерство в создании женского образа. В результате исследования установлено, что лирика Зуннуновой сыграла значительную роль в развитии узбекской женской поэзии.

Ключевые слова: Саида Зуннунова, лирическое наследие, женская психология, любовь и верность, поэтические образы, психологическая лирика, Зульфийа, тема войны, женский образ



KIRISH

XX asr o'zbek adabiyotida ayol shoirlar orasida o'ziga xos ohang, betakror poetik dunyoqarash va samimiy lirizm bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biri — Saida Zunnunovadir. Uning she'riy merosi insonning ichki kechinmalari, muhabbat, sadoqat, ayriliq, hayotning o'tkinchiligi va ruhiy iltiroblarini nozik sezgirlik bilan ifodalashi bilan qadrlanadi. Shoiralik asosiy kuchi — uning hayotiy tajribasi, o'z qalbidan o'tgan iltiroblarni badiiy tasvir vositasiga aylantirish mahoratidir. Shu jihatdan uning asarlarining o'rganilishi adabiyotshunoslikda doimiy ravishda davom etib kelmoqda. Saida Zunnunova she'riyati Zulfiyaga yaqin turuvchi ruhga ega bo'lsa-da, uning poetik dunyosi mustaqil, individual va psixologik teranlikka moyildir.

Taniqli yozuvchi va adib G'ofur G'ulom: "U xotin-qizlarga xos nazokat, iforday totimli liriasi bilan dillarimizni erkalatib, hordiqalarimizni yozib, mehnatga rag'batimizni toblantirib, idrokimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo'lib yetishadi", - degan iliq fikrlarni aytadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ayol ijodkorlarning shaxsiy hayoti ko'pincha ularning badiiy kechinmalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zunnunova ijodida ham o'ziga xos "ruhiy tarix", ya'ni shoira-ning ichki kechinmalari, o'z boshidan o'tkazgan dard-u iltiroblari poetik fikrning asosini tashkil qiladi. Shoira-ning she'rlarida ayriliq motivi alohida o'rin tutadi. "Baxtiyor sevgili kuylarda so'zim, o'lim xanjarga tegdi-yu sindi" kabi misralar uning ruhiy iltiroblarini, sadoqat va muhabbatning azobli qirralarini ochib beradi.

Zunnunova sevgi mavzusini faqat romantik tushunchada emas, balki ruhiy kechinmalarning murakkab qatlamlari, insonning ichki kurashlari, o'zini anglash jarayonlari bilan uyg'unlashtiradi. Ayol ijodkorlarga xos bo'lgan sezgirlik, tasvirning nozikligi va ruhiyatga chuqur kirib borish xususiyati Zunnunova she'riyatida yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Tabiat manzaralari, ichki monologlar, kechinmalarning rang-barang tasviri she'riy matnda tabiiy uyg'unlik kasb etadi. Zunnunova lirikasida "men" va "sen" timsollari o'rtasidagi munosabatlar poetik talqinning markazida turadi. Ba'zan bu obrazlar ichki iltirob va ayriliqni, ba'zan esa umid va sadoqatni aks ettiradi. Shoiralik uchun sevgi — insonni yuksaltiradigan, ruhiyatini shakllantiradigan kuchdir.

Adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, Zunnunova muhabbatni axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib talqin etadi. Uning she'rlarida sadoqat, vafodorlik, halollik, insoniylik doimo ustuvor mavqega ega. Bu esa uning ijodini axloqiy-estetik jihatdan boyitadi. Saida Zunnunova she'rlarida lirik qahramonning kechinmalari o'ziga xos tarzda quyma satrlarda keltirilgandir. Masalan, shoira-ning quyidagi she'riga diqqat qilaylik:

Yoshimni so'rama, bema'ni bu oq,
Oralay berarkan sochlarga har vaqt.
Shu o'tgan ozgina umrimga biroq,
Hech vaqt achinmayman, shuning o'zi baxt.
Xiyonat, g'iybatni bilmadim sira,
Nodonlik yo'liga qo'ymadim oyoq.
Ishqim bo'lsin, dedim, nurdek pokiza,



Balki shuning uchun sochimdagi oq.

1957-yil [1.12-b]

Yuqoridagi she'r o'tgan asrning o'rtalarida yozilgan bo'lib, bu vaqtda shoira sochlariga oq oralagani aytilmoqda. Endigina umr bahorining 35-36-pillapoyasiga qadam qo'ygan nozik tabiatli Saidaning sochiga oq oralatgan nima bo'lishi mumkin? Balki, turmush o'rtog'ining chekkan azoblari, yo bo'lmasa o'zining ta'na toshlari solib mudom qaynatilgan achchiq hayot taomimikin?! Nima bo'lsada, u uchun oralagan oq sochlar ahamiyatsiz: Oralay berarkan sochlarga har vaqt. Saidaxonim shu holatda ham yashagan umridan rozi, shukr aytib yashamoqda.

Shu o'tgan ozgina umringa biroq,

Hech vaqt achinmayman, shuning o'zi baxt.

Adabiyot ixlosmandlari orasida shoirlar : Saida Zunnunova va Zulfiyaxonim ijodini juda yaqin his qilish an'anasi bor. Zulfiyaxonimda ham shu misralarga hamohang satrlar keltirilgan. Uning " Men o'tgan umrga" nomli she'ri quyidagicha:

Hayot kitobimni bexos varaqlab,

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.

Tabassum o'rniga kuldim charaqlab,

Suyish kerak bo'lsa-telbacha suydim.

Kiyganim ipakmi, chitmi, yo kimxob,

Yurak boyligimdan qilmabman parvo.

Meni og'ushlagan hayot naq oftob,

Yangi qo'shiq talab unda har saboh.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,

Hech kimda ko'rmayin umringa o'xshash,

Suydim, erkalandim, ayrildim, kuydim,

Izzat nima – bildim, shu-da bir yashash!.. [2.]

Ko'rinadiki, har ikkala dildosh shoira ham o'zining o'tgan umriga, Alloh bergan sinovlariga-da rozi. Hattoki o'zining umridek umrni ko'rmaganini ham ta'kidlaydilar. Xiyonat, g'iybatni bilmadim sira,

Nodonlik yo'liga qo'ymadim oyoq, deya kuylagan shoira Saidaxonimning bu satrlari, Said Ahmad to'g'ri ta'kidlaganidek, uning she'rlarida chizilgan aksiga o'xshaydi. Darhaqiqat, Said Ahmad o'zining "Yo'qotganlarim va topganlarim" asarida Saidaxonimni quyidagi she'rini keltiradi:

Hayotdan nolisa birov, suymayman,

Ayniqsa sog' bo'lsa, qo'li, oyog'i.

Hayot siylar bizni quvonch, baxt bilan,

Ne ajab, bo'lsa goh alami, dog'i.

Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulguni,

O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar,

Qalbimning parchasi singmasa agar

Rozimasman birov hadya etsa zar.[1.23]

Bu she'rlarida biz tabiatan nozik xilqat qilib yaratilgan, ammo sinovlarga bo'yin bermaydigan, irodasi metindek mustahkam, ayni vaqtda boriga qanoat qila oladigan,



ruhan matonatli ayol timsolini kashf etamiz. Aslida shoiraaning umrlik orzusi ham o'zi bir she'rida :

Aqlim tanibmanki, minnatsiz bir baxt,
Minnatsiz umrni qilaman orzu.
Deydi.

Saida Zunnunova o'z she'rlarida ayollik baxt-u kamolini, onalikning hech bir baxtga tenglashtirib bo'lmaydigan quvonch-u shodliklarini, bo'y qizlar sevgisining toza va mayin latofatlarini kuyladi va shu kuylari bilan, o'xshashi yo'q bo'lgan she'riyat olamidagi o'zining yo'lini topa oldi.

Shoiraaning ijodida yetakchi mavzularidan yana biri- urush mavzusidir. Saida Zunnunova urushni ko'rmagan bo'lsa ham, ammo bu kasofatning xalq boshiga slogan og'ir kunlari guvohiga aylangan edi. Urush kechgan vaqtda shoira endigina aqlini tanib, oq-u qoraning fahmiga yetadigan yoshda edi. Har narsadan ta'sirlanaveradigan bu nozik qalb sohibasi ijodida bu mavzu o'zining ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymasdi. Keyinroq yaratilgan "Ruh bilan suhbat", "Qo'shnilarim", "Alla", "Nutq" singari asarlarida ayollarning vafosi, onalikning fidokorligi, farzandlarning Vatan oldidagi burchi yuqori ohanglarda kuylandi.

Shoiraaning onalik hislariga limmo-lim she'rlari ham borki, uni o'qigan inson suvdek tiniq va musaffo bir ajib hisni, nafis qo'lchalarning taftini-yu, Jannat iforini tuygandek bo'ladi go'yo. Mana shunday she'rlaridan biri:

Jahon mening bag'rimdami, yo men jahon bag'rida,
Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan.
Ming gulshanning gullaridan nozikroq bu qo'lchalar,
Baxtga ko'mib yuragimni, yuzlarim erkalagan.[1.]

She'r nihoyatda ohorli. Birinchi misrasidanoq o'yg'a toldiradi. Jahon mening bag'rimdami, deya jigarbandining borligi butun jahonning borligiga, uning quvonchi ham jahondek cheksiz ekanligiga, va ona uchun bu dunyo shu dilbandining borligi bilan go'zal ekanligini ifodalagan bo'lsa, yo men jahon bag'rida, deb ayni vaqtda o'zi ham bu Ona tuproq bag'rida erkalaniyotgan qizaloq siymosida gavdalanadi. Bu misralari bilan shoira go'yoki Vatanning- Ona Vatan sifatiga ham izoh bergandek bo'ladi, nazarimizda. Farzand- Alloh tomonidan berilgan mo'jiza, ulug' ne'matdir. Shuning uchun uning qo'llarini ming gulshanning gullaridan nozikroq deya ta'riflagan ijodkor, bu mitti qo'llar egasi uning yuragini baxtga ko'mib, yuzlarini ham erkalagani juda chiroyli tarzda keltirgan.

Saida Zunnunova she'riyatining eng nozik qirralaridan biri- ayol shoira sifatida ruhiyatiga mos so'zlar bilan she'r yoza olganligida bo'lsa kerak.

Ibrohim G'ofurov aytganidek, U o'zining ayolligini, ya'ni, demak, inson zotiga hamshiraligini yana bir dam bo'lsin unutmaydi. Uning she'rlarida lutfan aytadigan bo'lsak, Shirinning muhabbati, Laylining iffati, Barchinning madadkorligi, Zoyaning fidokorligi, Nodira donoligi, Uvaysiy zukkoligi, Zulfiya sadoqati, Tereshkova matonatiga jo'r tuyg'ular kuylanadi.[3.390-b]

Uning satrlariga mehr istab har qancha suyanmoqlik mumkin. Shoira ijodida shunday she'rlari ham borki, ularda ayol qalbi bor bo'y-u basti bilan namoyon bo'ladi:



Hammadan qoladi bu ko'hna dunyo,
Ham kekxa, ham go'dak muhabbat misol.
Bilib bilmaslikka olamiz go'yo,
Ayriliq abadiy, g'animat visol.
Sen menga bemalol suyanavergil,
Mushkuling, dardingni-barni to'kib sol.
Shunday qilsang biroz yengil bo'lasan,
Taskin bermoq menga kelmaydi malol.[1]

Ajablanarlisi shundaki, shoira she'rlari juda sodda o'qiladi, biroq nozik yelkasida dunyo tashvishi, olam hissiyotini tashiyotgandek zalvorli ohangi bor. Quyidagi she'riga e'tibor beraylik:

Ishqda vafo kerak, hayotda mardlik,
Shoirlar hamisha dil kerak dardlik.
Uni odamlarga qancha yuqtirsa,
Uni odamlarga qancha yuqtirsa,
Shuncha ko'payadi olamda yaxshi...[1.45]

XULOSA

Darhaqiqat, shoira ijodidagi doimiy mavzulardan biri ham aynan shu- dunyoda yaxshilarning ko'payishidan manfaatdor bo'lgan, aynan shuning uchun o'zini kurashlarda toblagan she'riyatdir. Shoira o'z she'rlarining tub mohiyatini bir she'rida quyidagicha izohlaydi:

Men-ku o'z nazdimda she'r ummoniga,
Sochdim anor gulin tiniqligini.
Non hidini qo'shdim,
Qo'shdim halol qullar suyukligini.
Ko'z yoshimning achchiq ham sho'r ta'mini,
Dillarni kemirgan hijron, alamni,
Jimjit oqshomlarning ohanglarini,
Beda gullarining hidi, rangini.[3.397]

Shoiraning she'rlarida anor gullaridan tiniqlik, nondan taraladigan tiriklikning o'lmas hidi, qo'llaridan mehnatning sevinchlari, alamlardan esa achchiq ta'mlari bor.

Umuman olganda, Saida Zunnunova elda e'zoz topgan, e'tibor qozongan, xalqqa kerakli gapni kerak vaqtda ayta olgan va yuragidan joy olgan adibadir. Uning she'rlarida shunday satrlar bor:

Bilasanmi qizim, bu koinotda,
Onaning orzusi quchmagan baxt yo'q,
Onaning xayoli yetmagan bo'shliq,
Onaning xayoli to'xtagan vaqt yo'q

Ha, Saida Zunnunova ishonch, orzu, xayol, haqiqat quvvati bilan kishining og'irini yengil qiladigan, yashashga o'rgatadigan, ma'naviy yuksakliklar tomon chorlaydigan ijodkor edi.



1. Zunnunova S. Tanlangan asarlar. Uch tomlik. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1976-1977-y
2. G'afurov I. Lirikaning yuragi. - T, Yosh gvardiya, 1982-y
3. G'afurov I. O'ttiz yil izhori. - T. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1976-1977-y
4. Hasanova H. Baxti kulgan shoiralar. - T.: O'zbekiston, 1976
5. Hasanova H. Talantli adiba. - T.: O'zbekiston, 1976